

Yangiobod tumani kasb-hunar maktabida
2024-yil birinchi choragida erishilgan yutuqlar toʻgʻrisida

Yangiobod tuman kasb-hunar maktabida jami 25 ta pedagog xodimlar ish bilan taʼminlangan boʻlib, shundan 20 nafar oliy maʼlumotli, 5 nafar tugallanmagan oliy maʼlumotli kadrlar bilan taʼminlangan.

Hozirgi kunda Yangiobod tumani kasb-hunar maktabida jami 234 nafar oʻgʻil-qizlarimiz taʼlim-tarbiya olmoqdalar. Ushbu oʻquvchilarga 25 nafar shundan, bosh oʻqituvchi 3 nafar, yetakchi oʻqituvchi 2 nafar, 2 nafar katta oʻqituvchi, 13 nafar oliy maʼlumotli va 5 nafar tugallanmagan oliy maʼlumotli oʻqituvchilar tahsil bermoqdalar.

2024-yil yanvar oyida professional taʼlim muassasalari oʻrtasida oʻtkazilgan “Barkamol avlod” sport musobaqasining viloyat bosqichida sportning “Badminton” turi boʻyicha kasb-hunar maktabi oʻquvchisi Obloqulov Behroz 1-oʻrinni egallab, Respublika bosqichiga yoʻllanmani qoʻlga kiritdi.

2024-yil yanvar oyida professional taʼlim muassasalari oʻrtasida oʻtkazilgan “Barkamol avlod” sport musobaqasining viloyat bosqichida sportning “Belbogʻli kurash” turi boʻyicha kasb-hunar maktabi oʻquvchisi Karimjonov Firdavs 1-oʻrinni egallab, Respublika bosqichiga yoʻllanmani qoʻlga kiritdi.

2023-2024 oʻquv yili umumtaʼlim fanlar olimpiadasida kasb-hunar maktabi oʻquvchilari qatnashib tuman bosqichida faxrli oʻrinlarni egallashdi.

Ergashev Mirzoulugʻ - Informatika fanidan 1-oʻrin, Pardaev Elbek - Tarix fanidan 3-oʻrin, Tojiqulova Bahora - Matematika fanidan 1-oʻrinni egallab viloyat bosqichiga yoʻllanma oldi.

Yangiobod tuman kasb-hunar maktabi bilan Axborot-kutubxona markazi hamkorlikda oʻquvchilarni qishki taʼilni mazmunli oʻtkazish maqsadida oʻquvchilar oʻrtasida “Zukko kitobxon” koʻrik tanlovi oʻtkazildi. Ushbu koʻrik tanlovda ishtirokchilar 3 ta shart boʻyicha oʻzaro bellashdilar. Tadbir ishtirokchilari hakamlar tomonidan adolati tarzda baholab borildi va tanlov natijalariga koʻra 1-oʻrinni 188-guruh oʻquvchisi Maʼmirjonova Muxtasar, 2-oʻrinni 188-guruh oʻquvchisi Begʻamova Shabbona, 3-oʻrinni 184-guruh oʻquvchisi Mamatqulova Maʼrifatlar qoʻlga kiritdi. Faxrli oʻrinlarni qoʻlga kiritgan gʻolib ishtirokchilarni kasb-hunar maktabi maʼmuriyati va

Axborot-kutubxona markazi tomonidan diplom va esdalik sovgʻalari bilan taqdirlandi. Tadbirda 22 nafar kitobxon ishtirokchilar qatnashdi.

9225-harbiy qism Chegara qoʻshinlari harbiy xizmatchisi katta serjant U.Allanazarov ishtirokida “Oʻquvchilar oʻrtasida yoshlarda Vatanga boʻlgan muhabbat va hurmatni kuchaytirish hamda ularda harbiy xizmatga hohisini uygʻotish” mavzusida maʼnaviy maʼrifiy tadbir oʻtkazildi. Tadbirda 125 nafardan ortiq oʻquvchilarimiz ishtirok etdi.

2023-yil noyabr oyida professional taʼlim muassasalari oʻrtasida oʻquvchilari oʻrtasida besh tashabbus olimpiadasi doirasida sportning “Shashka” turi boʻyicha kasb-hunar maktabi oʻquvchisi Xoʻjamurodov Xoʻjabek 2-oʻrinni, sportning shaxmat turi boʻyicha Biytoʻrayeva Husnora 3-oʻrinni, sportning voleybol turi boʻyicha qizlar jamoasi 3-oʻrinni, sportning voleybol turi boʻyicha oʻsmirlar jamoasi 3-oʻrinni egalladi.

2024-yil yanvar oyida professional taʼlim muassasalari oʻrtasida oʻtkazilgan “Barkamol avlod” sport musobaqasining viloyat bosqichida sportning “Badminton” turi boʻyicha oʻsmirlar oʻrtasida juftlikda kasb-hunar maktabi oʻquvchilari Karimjonov Firdavs va Suvonqulov Muzaffar 2-oʻrinni egalladi.

2024-yil yanvar oyida professional taʼlim muassasalari oʻrtasida oʻtkazilgan “Barkamol avlod” sport musobaqasining viloyat bosqichida sportning “Badminton” turi boʻyicha oʻsmirlar oʻrtasida juftlikda kasb-hunar maktabi oʻquvchilari 2-oʻrinni egalladi.

2024-yil fevral oyida professional taʼlim muassasalari oʻrtasida oʻtkazilgan “Barkamol avlod” sport musobaqasining viloyat bosqichida sportning “Shashka” turi boʻyicha oʻsmirlar oʻrtasida juftlikda kasb-hunar maktabi oʻquvchilari 2-oʻrinni egalladi.

2024-yil fevral oyida professional taʼlim muassasalari oʻrtasida oʻtkazilgan “Barkamol avlod” sport musobaqasining viloyat bosqichida sportning “Shaxmat” turi boʻyicha qizlar oʻrtasidagi musobaqada Biytoʻrayeva Husnora, oʻsmirlar oʻrtasidagi musobaqada Suvonqulov Muzaffar,

sportning “Shashka” turi boʻyicha kasb-hunar maktabi oʻquvchisi Xoʻjamurodov Xoʻjabek 2-oʻrinni egalladi.

2024-yil fevral oyida kasb-hunar maktabi oʻquvchisi Noryigitov Firdavs sportning “Taekwon-do WT” turi boʻyicha viloyat bosqichida 2-oʻrinni egalladi.

2024-yil fevral oyida kasb-hunar maktabi oʻquvchisi Boʻrijonov Hindolbek sportning “Anʼanaviy ushu” turi boʻyicha 2-oʻrinni egalladi.

2024-yil professional taʼlim muassasalari oʻrtasida oʻtkazilgan “Barkamol avlod” sport musobaqasining viloyat bosqichida sportning “stol tennisi” turi boʻyicha kasb-hunar maktabi oʻquvchisi Haydarjonov Shohjahon 2-oʻrinni egalladi.

Yangiobod tuman kasb-hunar maktabida “Muvaqqiyatga erishish sirlari” mavzusida “Uch avlod uchrashuvi” oʻtkazildi. Uchrashuvda tuman maʼnaviyat va maʼrifat markazi rahbari S.Abdurahmonova, Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasi aʼzosi B.Toshboyev va nafaqadagi ustozlar A.Iсроilovlar ishtirok etdi. Uchrashuvda soʻzga chiqqanlar oʻquvchi-yoshlarning hayotda oʻz oʻrnini topishlari va muvaqqiyatga erishishlari boʻyicha tavsiyalarini berib oʻtdilar.

Yangiobod tumani kasb-hunar maktabida oʻquvchilar oʻrtasida har oyda 1 marta “Zakovat” intellektual oʻyini oʻtkaziladi.

Oʻquvchilarni kasb-hunar oʻrganishlari uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Jumladan, Raqamli axborotlarni qayta ishlash ustasi yoʻnalishida taʼlim olayotgan oʻquvchilar uchun 2 ta xonada 32 dona yangi kompyuterlar qoʻyilgan. Magistrlar darajasiga ega boʻlgan oʻqituvchi dars beradi.


Avtomobilarning yurish qismiga texnik xizmat koʻrsatish va taʼmirlash yoʻnalishi uchun 2 ta oʻquv xonasiga avtotirinajoylar, svetofor maketlari, yoʻl harakati qoidalarini koʻrgazmali plakatlar va boshqa zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan.

Tikuvchilik yoʻnalishi uchun ham 2 ta xonaga jami 16 dona zamonaviy tikuv mashinalari oʻrnatilgan.

Payvandchi(elektrgazpayvandlash ishlari) yoʻnalishi uchun 3 ta yangi payvandlash apparatlari va boshqa zarur jihozlar mavjud.

Bundan tashqari barcha xonalarga videoproektorlar, elektron doskalar va televizorlar oʻrnatilgan boʻlib, ulardan amaliyotda foydalanilmoqda.

Tuman kasb-hunar maktabi



YANGIOBOD OVOZI

YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI GAZETASI

MUASSIS: YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI

Bosh muharrir: A. MUHAMMADIYEV

Gazeta Jizzax viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 06-041 raqami bilan roʻyhatdan oʻtgan.

TAHRIR HAYʼATI: Ibrohim QARSHIBOYEV Azizbek NISHIONOV Valijon XASANOV Sabohat ABDURAHMONOVA Beknazar TOSHOYEV Olimjon BEGMATOV

TELEFON: +998 72 542-11-31

NASHR UCHUN MASʼUL: A. MUHAMMADIYEV

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilib, sahifalandi. Qogʻoz bichimi A-3. Gazeta «RASTR PLYUS PRINT» MCHJ da ofset usulida 750 nusxada chop etildi. Korxona manzili: Jizzax shaxri, Sayiljoy koʻchasi, 4-uy. Bosishga ruhsat etildi 26.04.2024-yil BUYURTMA №

BUYUK KELAJAKNI BIRGA QURAMIZ

YANGIOBOD OVOZI

YANGIOBOD TUMANI HOKIMLIGINING IJTIMOY-SIYOSIY, MAʼRIFIY GAZETASI

3-son (55) 30-aprel, 2024-yil, seshanba	Ijtimoiy-siyosiy, maʼrifiy gazeta	Bahosi erkin narxda	Gazeta 2019-yil yanvardan chiqa boshladi
---	-----------------------------------	---------------------	--

QAYTA KOʻRISH INSTITUTIGA
TUSHUNTIRISH BERILDI

2024-yil 1-yanvardan Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan oʻzgartirish hamda qoʻshimchalar fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirdi. Bu oʻrinda apellyatsiya va kassatsiya institutlarining takomillashtirilishi, sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirish mexanizmi oʻzgartirilishi, apellyatsiya, kassatsiya instansiya sudlarining vakolatlari kengaytirilishi bilan bogʻliq yangilanishlar haqida soʻz bormoqda.

Aytish kerakki, protsessual qonunlarga kiritilgan oʻzgartirishlar, avvalo, sud qarorlarini qayta koʻrishning yangi tartibini joriy etish orqali fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini yanada oshirishga qaratilgan. Natijada inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini yanada kengroq himoya qilish imkoniyati yaratilmoqda.

Eng muhimi, sud qarorlarini qayta koʻrishning yangi tizimi fuqarolarning sudga murojaat qilish bilan bogʻliq ovoragarchiliklarining oldini olishga xizmat qiladi. Yagona sud amaliyotini shakllantirish, ishlarning sifatli hamda oʻz vaqtida koʻrilishi orqali bir tomondan, odil sudlov amalga oshirilayotgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, inson huquqlarining ishonchli himoyasi taʼminlanmoqda.

- birinchi instansiya sudida koʻrilgan ishlarni viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida qayta koʻrib chiqish;
- apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida koʻrilgan ishlarni ushbu sudlarda taftish tartibida qayta koʻrib chiqish;
- taftish tartibida koʻrilgan ishlarni Oliy sudning sudlov hayʼatlarida, sudlov hayʼatlari tomonidan koʻrilgan ishlarni Oliy sudning Rayosatida taftish tartibida qayta koʻrib chiqish nazarda tutilgan.

Shuningdek, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tomonidan ishni yangidan koʻrish uchun quyi sudlarga yuborish tartibi bekor qilinib, ularga yakuniy qaror qabul qilish masʼuliyati yuklatilgan.

Plenum qarori 50 banddan iborat boʻlib, uni ishlab chiqishdan maqsad — sudlar tomonidan protsessual qonun normalarini bir xilda va toʻgʻri qoʻllanilishini taʼminlashdan iborat.

Hujjatda apellyatsiya, kassatsiya tartibida sud qarorlarini qayta koʻrishda kelib chiqadigan ayrim protsessual masalalar boʻyicha zarur tushuntirishlar berilgan.

Xususan, unda apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sudlarida ish yuritishning asoslari keltirilgan. Protsessual qonunda apellyatsiya yoki kassatsiya shikoyati bilan murojaat qilish huquqiga ega boʻlgan shaxslar roʻyhati belgilangan boʻlib, shikoyat berish huquqi ushbu shaxslarning huquqiy vorislariga ham oʻtishi qayd etilgan.

Bunday huquq voyaga yetmagan, vasiy va homiyga ega boʻlgan shaxslarning qonuniy vakillariga ham berilgan. Shikoyat beruvchi shaxsning vakiliga notarial tasdiqlangan tarzda berilgan ishonchnomada esa, shikoyat berish va uni imzolash kabi vakolalar maxsus koʻrsatilgan boʻlishi lozim.

Shuningdek, Plenum qarorida shikoyat keltirilmaydigan sud hujjatlari, apellyatsiya, kassatsiya shikoyatini (protestini) berish tartibi, muddatlari, ushbu muddatlarni hisoblash, tiklash, sud xarajatlariga doir masalalar yuzasidan ham tushuntirish berilgan. Shikoyatni (protestni) qabul qilish masalasini hal etish, sud hujjatlari ijrosini toʻxtatish, ishni birinchi instansiya qoidalar boʻyicha koʻrish, dalillarni tekshirish, shikoyat (protest) vajrlariga huquqiy baho berish kabi boshqa bir qator masalalar yuzasidan ham tushuntirishlar berilgan.

2024-yil 1-yanvarga qadar amalda boʻlgan fuqarolik protsessual qonunchiligiga koʻra, apellyatsiya shikoyatini (protestini) qabul qilish masalasi ishni koʻrgan sud tomonidan amalga oshirib kelingan.

Endilikda bu vakolat viloyat va unga tenglashtirilgan apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sudining sudyasiga berildi.

Qonun hujjatlarida bu muddatlarni tiklash uchun asoslar, sabablar va omillar

keltirilmaganligi bois bir xil sud amaliyotini yaratish qiyin kechayotgan edi. Shuning uchun qarorda shikoyat bilan murojaat qilish muddatini tiklash masalasini hal qilishda bunga toʻsqinlik qilgan obyektiv holatlarga qanday omillar kirishi, xususan, jismoniy shaxslarning kasalligi, oilaviy ahvoli va boshqa holatlar uzrli sabablar hisoblanishi tushuntirilib, sudyaning muddatni tiklash haqidagi xulosalari shikoyatni (protestni) qabul qilish, qabul qilishni rad etish haqidagi ajrimlarda asoslantirilishi lozimligi koʻrsatilgan.

Plenum qarorida shikoyat (protest) berish muddati uzrli deb topilgan sabablarga asosan tiklanganda, ish boʻyicha boshqa shaxslar tomonidan oʻtkazib yuborilgan muddat, oʻtkazib yuborilishi sabablaridan qatʼiy nazar, tiklash toʻgʻrisidagi masalani qoʻshimcha ravishda hal qilish talab etilmasligi ham batafsil tushuntirilgan. Bunday shikoyat (protest) tegishli talablarga rioya etgan holda apellyatsiya, kassatsiya muhokamasi tugaganiga qadar shu instansiya sudiga berilishi mumkin va umumiy asoslarda koʻrib chiqilishi lozim.

Chunki apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sud hujjatini shikoyatda (protestda) keltirilgan vajrlar doirasida emas, toʻliq hajmda tekshirib chiqishi shart boʻlib, bitta yoki bir nechta shaxs tomonidan shikoyat (protest) berilishidan qatʼiy nazar, sud hujjatining qonuniyligi, asosiligi va adolatligi toʻliq tekshiriladi. Plenum qaroridagi asosiy tushuntirishlardan yana biri protsessual qonunchilikka kiritilgan yangi protsessual harakat, yaʼni faqat apellyatsiya, kassatsiya instansiya sudlari vakolati hisoblangan ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalar boʻyicha koʻrish tartibidir. Bu norma boshqa protsessual qonunlar qatorida Fuqarolik protsessual kodeksiga ham kiritilgan boʻlib, Plenum qarorida aynan shu tartibda ish yuritish qoidalar yoritilgan.

Xususan, qonunga koʻra, uchta holatda:

- birinchidan, bildirilgan talab boʻyicha sud tomonidan qaror qabul qilinmagan boʻlsa;
- ikkinchidan, ish sudda ishtirok etish huquqiga ega boʻlgan, ammo sud majlisining vaqti va joyi toʻgʻrisida xabardor qilinmagan shaxslarning yoʻqligida koʻrilgan boʻlsa;

Aynan shunday protsessual xatoliklarga yoʻl qoʻyilgandagina sud ishni yangidan koʻrishga yubormasdan, birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalar boʻyicha koʻrishga oʻtishi va bu haqida asoslantirilgan ajrim chiqarishi lozim.

Plenum qarorida ushbu protsessual harakatning yana bir muhim jihati keng yoritilgan. Yaʼni ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan yoki xabardor qilinmagan shaxslar apellyatsiya, kassatsiya instansiyasida qatnashganda ular tomonidan birinchi instansiya sudida muhokama predmeti boʻlmagan, jumladan, qarshi daʼvo tartibida keltirilgan yangi moddiy-huquqiy daʼvo talablari, shuningdek, daʼvo muddatini qoʻllash haqidagi talablar qoʻyilgan boʻlsa, sud tomonidan bu talablar qabul qilinishi va koʻrilishi lozimligi tushuntirildi.

Shu bilan birga, Plenum qarorida boshqa bir qator protsessual harakatlarga oid tushuntirishlar ham berilgan. Hujjat sud ishni koʻrishda aniqlashi lozim boʻlgan holatlar, dalillarni tekshirish, shikoyat (protest) vajrlarini toʻliq oʻrganish va ularning har biriga tegishli huquqiy bahor berish, moddiy va protsessual huquq normasi buzilishi yoki notoʻgʻri qoʻllanilishi holatlarining toʻgʻri talqin qilinishiga bagʻishlangan.

Ushbu Plenum qarori fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali ishonchli himoya qilishga qaratilgan. Yangi hujjat sudlarning protsessual qonunni toʻgʻri qoʻllashi uchun muhim huquqiy asos boʻlib xizmat qiladi.

A.PULATOV,
fuqarolik ishlari boʻyicha
Zarbдор tumanlararo sudi sudyasi

ZAXARLI QO'ZIQORINLARNI ISTE'MOL QILMANG



Muxomor. Uning tashqi ko'rinishi iste'molga yaroqli qo'ziqorinlardan keskin farq qiladi. Shunday bo'lsa-da, ko'pincha bolalar bu farqni anglamay terib kelishi va iste'mol qilishi natijasida zaharlanish ular o'rtasida ko'proq uchraydi. Muxomor qo'ziqorinining zahri birinchi galda asab tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Oshqozonga tushgandan so'ng 30 daqiqadan va 3 soatgacha bo'lgan vaqt ichida nojo'ya ta'sirini ko'rsatadi. Zaharlangan kishida kuchli so'lak ajralishi, terlash, ko'ngil aynishi, qusish va ich ketish kuzatiladi. Bronxlarda balg'am yig'ilib nafas olish qiyinlashadi. Og'ir hollarda bosh aylanish, talvasa, alahlash ro'y beradi. Bulardan tashqari yana juda ko'plab zaharli qo'ziqorin turlari bor. Shuni ham aytib o'tishimiz kerak, katta yo'llar bo'yidagi, kimyoviy moddalar ishlab chiqarish korxonalari yoki ular saqlanadigan omborlarga tutash hududlarda o'sgan yesa bo'ladigan qo'ziqorin turlarini ham iste'mol qilish yaramaydi. Chunki, qo'ziqorinlar atmosfera havosi, suv va tuproqdagi zaharli kimyoviy moddalarni o'ziga tez singdirib olish xususiyatiga ega. Shuning uchun ba'zida yesa bo'ladigan qo'ziqorinlardan zaharlanish holatlari ham uchrab turadi. Ruhlangan idishlarda saqlangan qo'ziqorinlardan ham odam zaharlanib qolishi mumkin ekan. Chunki idishni qoplagan ruh qo'ziqorinlarga ta'sir

qilib, uning sifatini buzadi. Shaharlaroma avtomagistral yo'llarida, bozorlarda sotilayotgan, kelib chiqishi noma'lum bo'lgan qo'ziqorinlarni sotib olmaganingiz ma'qul. Bu bilan o'zingiz va oila a'zolaringizni xavfli, oqibati noma'lum yegulikdan asragan bo'lasiz. Yovvoyi holda o'sadigan qo'ziqorinlarning iste'mol uchun xavfliligi shundaki, ularga termik ishlov berilganda, ya'ni qaynatilganda, qovurilganda ham tarkibidagi zaharli moddalar parchalanmasligi yoki zaharlilik xususiyatini saqlab qolishi mumkin. Shuning uchun ularni bolalarga berishdan oldin yaxshilab o'ylab ko'rgan ma'qul. Qo'ziqorindan zaharlanish belgilari iste'mol qilingan mahsulotning turiga qarab, 20 daqiqadan bir necha soatgacha cho'zilishi mumkin. Asab tizimidagi o'zgarishlar zaharlanish uchun xarakterli belgi hisoblanadi. Bundan tashqari, so'lak oqishi, ko'p terlash, ko'zdan yosh oqishi, ko'ngil aynishi, qorinda og'riq paydo bo'lishi va qayt qilish kuzatiladi. Tomir urishi (puls) sekinlashadi va sustlashadi, alahsirash (gallyutsinatsiya), titrash kuzatiladi. Bunday bemorga tez tibbiy yordam ko'rsatilsa, odatda 1-2 kundan keyin sog'ayib ketadi. Aks holda bemorning ahvoli og'irlashib, ayrim hollarda o'lim bilan tugaydi. Bunday noxush holatlarga duchor bo'lmalik uchun adabiyotlardan va shu mavzudagi ma'lumotlardan foydalangan holda, qo'ziqorinlarning iste'molga yaroqlisi bilan zaharlisini ajrata bilish kerak. Maktablar, oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida bu haqda ma'lumotlar berilishi maqsadga muvofiq.

M.IBRAGIMOV,
Yangiobod tuman sanitariya
epidemiologiya-osityshaligi va jamoat salomatligi
bo'limi sanitar vrachi

MA'NAVIYAT YANGI KUCHGA, YANGI HARAKATGA AYLANISHI KERAK

Bugungi kunda xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish, ularning madaniy-ma'rifiy saviyasini oshirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan yig'ilishida ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, san'at, adabiyot va ijod sohaslaridagi ishlar tanqidiy-tahliliy ruhda muhokama qilinib, kelgusidagi ustuvor vazifalar belgilab berilganligi fikrimizning isbotidir. Albatta, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, san'at, adabiyot va ijod sohasida amalga oshirilgan islohotlarga insonlarda hayotga qarashni o'zgartiradi, ertangi kunga ishonchni, el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usini mustahkamlaydi.

Davlatimiz rahbari buning uchun avvalo mustahkam iqtisodiy asoslar kerakligini ta'kidlab, shu borada amalga oshirilayotgan ishlarni qayd etib o'tdi. Ushbu iqtisodiy asos natijasida bu yil ijtimoioy sohaga eng ko'p – 134 trillion so'm mablag' ajratilganligini, bu esa 2016-yilga solishtirganda 5,6 barobar ko'p ekanligini ta'kidladi.

Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur'atlari shiddatli tus olgani, o'ta ziddiyatli jarayonlarning ta'siri mamlakatimizda ham sezilayotgani qayd etildi.

– Tarixdan ma'lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur, – deya ta'kidladi Prezident. Ma'rifatparvar bobolar g'oyalari o'rganish va rivojlantirish bo'yicha Prezident qarori qabul qilinishi belgilandi. Shuningdek, Buxorodagi tarixiy maskanda “Jadidlar merosi” davlat muzeyi ochilishi, “Jadid” nomli yangi gazeta tashkil etilishi qayd etildi. Davlatimiz rahbari jadidlar hayoti va bebaho merosiga takror-takror urg'u berayotgani bejiz emas. Bu ulug' insonlar— Vatan uchun fidoyilik, jasorat va matonat timsoli. Ular yangi usuldagi maktablar ochdi, teatlar tuzib, ular uchun pesalar yaratdi. Ma'rifatparvar ajdodlarimiz yozgan asarlar, ilgari surgan g'oya va tashabbuslar bugungi kunda yurtimizdagi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish, xalqimizni zamonaviy ilm-fan yutuqlariga oshno etish, el-yurtga sadoqat va milliy g'urur tuyg'ularini yuksaltirish, umuman, yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga mazmunan uyg'un va hamohangdir.

Darhaqiqat, davlatni davlat, millatni millat qiladigan uning ma'naviy qiyofasidir. Prezidentimizning bu borada “Biz hozirgi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Agar biz bu yorug' dunyoda “o'zbek”, “O'zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi”, deya bong urishi bejiz emas. Prezidentimiz ma'naviyat, madaniyat, ma'rifati rivojlantirish bugun muayyan tashkilotlarninggina emas, butun xalqimizning ishi, har birimizga tegishli dolzarb vazifa ekanligini, bu masalalar hamma bir yoqadan bosh chiqarib, harakat qilsangiza yuzaga chiqishini ta'kidlayapti. Bu masalalarga beparvolik, loqaydlik, panja orasidan qarash esa kelajagimizga, el-yurtimiz taqdiriga bepisandlik, hatto xiyonat bilan barobar, deya ogohlantiryapti.

S.ABDURAHMONOVA
Tuman Ma'naviyat va ma'rifat markazi
rahbari, Viloyat Kengashi deputati

KORRUPSIYA - KUSHANDASINI TAQDIR ETGAN JAMIYAT

Korrupsiyaga qarshi kurashish O'zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylanib ulgurdii. Buni so'nggi yillarda sohaga oid qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega normativ-xuquqiy hujjatlar, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida ham ko'rish mumkin.

Korrupsiya shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

Darhaqiqat bugungi har sohadagi izchil rivojlanish davrida korrupsiyaga qarshi kurashishda shu jamiyatda yashayotgan har bir fuqaroning yordami zarur. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvar kungi №O'RQ 419-sonli qonuni imzolandi. Ushbu qonun va qonunosti hujjatlar asosida o'tgan davr mobaynida juda ko'p samarali ishlar amalga oshirildi va ular o'z natijasini bermoqda. Korrupsiyadan holi hududga aylantirdik, deb ayta olmaymiz. Bu esa siz va bizdan korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurashishda hech birimiz chetda turmasligimizni, har birimizning mas'ul ekanligimizni anglashni taqazo etadi.

Isroil davlatining 5-Bosh vaziri Golda Meir xonim shunday vasiyat qoldirgan ekan: “agar Siz o'g'il-qizlari unga doimo qaytadigan, aholisi undan faqat ta'til mavsumidagina chetga chiqadigan, uning hududida kelajak uchun qo'rquv xissi bo'lmaydigan Vatan qurmoqchi ekansiz, quyidagi ikki qadamni qo'ying: birinchidan, korrupsiyani Vatanga xonilikka, korrupsionerni esa eng ashaddiy sotqinga tenglashtiring, ikkinchidan, harbiylar, o'qituvchilar va shifokorlarni eng katta maosh to'lanadigan kasb egalariga aylantiring”.

Zero, kelajak avlodlar uchun korrupsiyadan holi davlatni qo'llab-quvvatlash har birimizning burchimizdir.

S.ABDURAHMONOV
tuman IIB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha o'rinbosari, kapitan

ONA YER

Ortga boqib ko'rsam ming yillik tarix,
Ajdodlar siymosi na'ra tortgan sher.
Mangu yuksaldi yurt, kechib qonu tig',
Ajdodlari buyuk, buyuk Ona yer.

Dunyoni zabt etdi sarkarda Temur,
Tibbiyot hanuzgacha Ibn Sino der.
To'maris onamiz nomus va g'urur,
Shiroq ham dushmanni tishlatgandi yer.

Yozdilar g'azallar, tuyuq, ruboiy,
Navoiy va Bobur, Lutfiy, Farobiy.
Nodira, Zulfiya hatto Uvaysiy,
Nazm, Gulxanlari bo'lgan Ona yer.

Ulug'bek olimu, mislsiz inson,
Uning hisobini tan oldi osmon.
Texnika asri bo'lmagan zamon,
Xorazmiy ulg'aygan ulug' Ona yer.

Bekorga ketmadi shuncha o'g'lonlar,
Avloniy, Behbudiy yohud Cho'ponlar.
Sobir Rahimovdek zo'r generallar,
Manguberdi kabi, mangu Ona yer.

Dunyoni zabt etgan azal ajdodlar,
Shu tuproq farzandi aziz avlodlar.
Qancha insonlarni osdi jallodlar,
Onadek bag'riga olgan Ona yer.

Farobiy bobomiz ulug' faylasuf,
Hanuz tildan tushmas Mir Alisher.
Erkin Vohid ham Muhammad Yusuf.
Shunday ulomalar o'sgan Ona yer.

Hali qancha inson qoldi aslida,
Yozsam bo'lar ekan atab qa'sida.
Nomlaridir ulug' har bir asrda
Oltindan ziyoda zarrang Ona yer!..

OTAJON

Yoningizdan ketgach bo'ldim
pushaymon.
Ichdan ezilaman alam va armon,
Nahot topolmayman endi hech qachon.
Sizni axtarsam ham aziz otajon,

Ota, titrab bosdim etmadingiz his.
Yetib kelgunimcha bo'ldi yo'l olis,
Ichidim alamim chiqmaydi afsus.
Davlatim ekansiz aziz otajon.

Qo'llaringiz o'pib, ko'zingma surtdim.
Quchoqlab bag'rimga ohista bosdim,
So'nggi bor aziz poyingiz oldim.
Tengi yo'q ekansiz aziz otajon,

Deraza tokchasiga qo'yildi narvon.
Qaytib ko'rmoqlik yo'q endi hech qachon,
Yerdan ko'tardilar ketdingiz shu on.
E'zozlab bordilar sizni otajon

Ustoz deb qo'lma-qo'l qilishdi har on.
Sizdan so'z ochishdi: "Benazir inson".
Faxrlanib yasharman otam deb zotan.
Qabringiz nurlarga to'lsin otajon,

Tushlarimga qoldi diydor ham qayta.
Qur'onni o'qiyman, tilovat ayta,
Jannatdan joy bersin Allohim ota.
Ilinjim Maxshardan aziz otajon!.

O'ZBEKISTONIM

Bog'u-gulzorlaring jannat misoli,
Musaffo osmoning, tinchlik timsoli.
Jahonlar ichida betakrordisan,
Go'zal diydordisan O'zbekistonim.

Birma-bir zabt etar dunyoni yoshlar,
Hilpiratib ko'tarar ko'kka bayrog'im.
Yoshi ulug'larim, duodan boshlar,
Yagonasan tanho, O'zbekistonim.

Tarifa til o'jiz maqtab yod etar,
Titratib o'tatar ming yillik tarix.
Qancha madx etsang ham zavqlanib aytar,
O'tmish kelajaging O'zbekistonim.

Serviqor tog'laring, gulzor bog'laring,
Qir-adir dalalar, voha-vodiyalar.
Chashma suvlari ham olar dardlaring,
Shifobaxsh giyohing O'zbekistonim.

Allohim nazari tushgan diyorim,
Hur-malak siymosi qiz-onalarim.
Onanini o'zozlab jannatdek bilgan,
Alp-o'g'loni to'la O'zbekistonim.

Elda balx urar tinchlik-totuvlik,
Uyda har kun mehmon, shirin zabonim.
Azaldan tildadir go'zal makonim,
Jannatdir, jannatdir O'zbekistonim.

KAMTARLIK

O'z osmonimda o'zim sultonman.
Berilgan umrimda yakka hoqonman.
Allohim oldida ko'ngli osmonman.
Kerilmam, dunyoga qirol-shoh bo'lsam.

Ko'nglim uchun ko'kda yakka
quyoshman.
Tunlarni yoritgan oyga sirdoshman.
O'z ko'nglim uchun, o'zim bardoshman.
Kerilmam dunyoga qirol-shoh bo'lsam.

Dunyo mansabiga asli bemorman.
Ko'ngillar og'ritsam tunda bedorman.
Men kimman, o'zingma shohu-sultonman.
Kerilmam dunyoga qirol-shoh bo'lsam.

Oyog'im chalsalar yiqildim, turdim.
Qalbmimni ochdimu Allohga burdim.
Xudoga solganim, hammasin ko'rdim.
Kerilmam dunyoga qirol-shoh bo'lsam.

Kim o'zini oldi podshohdek baland,
Unga oshno bo'ldi qadamida pand.
Yuksalmoqda ro'him kamtarlik bilan.
Kerilmam dunyoga qirol-shoh bo'lsam!..

OTAMGA

Ko'nglimda og'ir dard, bilinar bir oz.
Kunlar o'tib ketdi, yillar har onim.
Suratingiz asrar bir parcha qog'oz.
Tuproqqa uralgan padarijonim.

Sog'inchi istirobi qiynar yod etib.
Qabr boshingizda ichimda unim,
Ayriqli azobi timar tuz sepi.
Alamim bug'zimda padarijonim,

Qirlarga qarasam dardim yangilar.
Uning ostidasiz ko'rmoqlik o'rtar,
Sog'inchning har kuni meni qarshilar.
Boqib qiynalsam ham padari jonim.

Qabristonga kirib hayolda uchsam.
Ostonangdan kirib bersam edi jon,
Armonim qolmasdi sizni bir quchsam.
Sizni bag'rimga bir bosсам otajon,

Turmasam qaniydi qabr boshidan.
Ayriqli alamidan kuydiku onam,
Ketmasam qaniydi otam qoshidan.
Yastanib qabrda yotgan jon otam.



2024-yil 26-aprel kuni Jizzax viloyati Yangiobod tumani Hokimligi, Axborot-kutubxona markazi, Tuman maktab va maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli maktablar, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Yangiobod tuman bo'limi bilan hamkorligida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdragi “2020-2025 yillarda Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab quvvatlash Milliy Dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 12-maktab binosida IV Respublika “Kitobxonlik haftaligi” tadbirining yopilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirda tuman hokimi o'rinbosari A.Nishonov so'zga chiqib “Kitobxonlik haftaligi” doirasida “Kitobsevar millat” shiori ostida tadbirlarning ko'tarinki ruhda o'tkazilganligi haqida, kitobxonlarga bundan keyingi tadbirlarda ham faol bo'lishlarini ta'kidlab o'tdi. Haftalik yakunida faol ishtirokchilar, tanlov g'oliblariga hamkor tashkilotlar axborot-kutubxona markazi tomonidan taqdirlandilar. Tadbirda 100 dan ortiq kitobxonlar ishtirok etdi.

Tuman Axborot-kutubxona markazi

Millionlab insonda mendagi sog'inch.
Millionlab insonlar qilar tilovat,
Jannatdan joy oling qalbindan o'tinch,
Chin dildan o'qiyman Qur'on-tilovat.

KUTAMAN OTA

Yo'qligingiz o'ylab ming bora,
Bir ilinjda qumsayman qayta.
Ko'rmoqlikka boshqa yo'q chora,
Tushlarimda kutaman ota.

Shahodatim bormasmi sira,
Charchayabman sog'inchim ayta.
Kuttirasiz ko'nglim ham xira,
Tushlarimda kutaman ota.

Aytolmadim ichdan ezildim,
Diydam borar kun sari qotim.
Ich-bag'rimdan tamom sitildim,
Tushlarimda kutaman ota.

Salovatni takroran aytib,
Dardlarimni choklarin sita.
Yetmayabdi bardoshim qaytib,
Tushlarimda kutaman ota,

Mozor boshi turmasam edi,
Sizni qattiq quchardim o'ta.
Sog'inchingiz qiynaydi endi,
Tushlarimda kutaman ota.

Mehringizni tuyib yashayman,
Hasratimni ko'nglimdan ota.
So'zlaringiz qattiq qumsayman,
Tushlarimda kutaman ota.

Sizni har on kutaman ota.



Muallif: Gulora Hamidjanovna